

## CHET TILINI O'QITISHDA RASMLARDAN FOYDALANISHNING INTERAKTIV USULLARI

*Ergasheva Zuhra Qahramon qizi*

*Xalqaro Vestminster Universiteti akademik litseyi*

*Nemis tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tili darsida rasmlarning ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, chet tilini o'qitishda qo'llaniladigan bir qator interaktiv metodlar havola qilingan.

**Kalit so'zlar:** vizual media, metod, rasmlar.

Dars bir qator omillarning kombinatsiyasidir. U shunday tashkil qilinishi kerakki, unda bilim o'quvchilarga turli yo'llar orqali yetkazilishi va natijada o'quv jarayoni yengillashtirilishi lozim. O'qituvchining nutq ohangiga, imo-ishora va mimikaga, sinfdagi atmosfera, sinfning yorug'ligi va boshqa ko'pgina omillar o'quvchilar va ularning bilim olishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchilarning turli tumanligi va ularning qabul qilishlaridagi farqlardan xabardor bo'lishi talab etiladi. O'quvchilar ma'lumotlarni qabul qilishiga ko'ra to'rt turga bo'linadi

O'qituvchi mavzuni yetkazib berish uchun turli vositalardan foydalanadi. O'quvchining qancha ko'p sezgi a'zolari dars jarayonida faollashtirilsa, berilgan mavzu ham shunchalik oson o'zlashtiriladi va esda qoladi. Bunday vositalardan biri o'quvchilarga mazmunni yaxshiroq tushunishlari va eslab qolishlariga yordam beradigan ommaviy axborot vositalaridir. Dars davomida media vositalaridan foydalanish o'qituvchilarning ishini va talabalarning o'quv jarayonini yengillashtiradi.

Dars davomida bosma, vizual, auditiv, audiovizual va yangi axborot vositalaridan foydalaniladi. Bosma media vositalariga o'qish va ish kitobi, gazeta va jurnallar hamda tarqatma materiallar kiritiladi.

Visual media vositalari mavzuni va materialni o'quvchilarga visual taqdim etishga ko'maklashadi. Bunda ko'zlar ma'lumotni qabul qiluvchi vazifasini o'tab, o'quvchi ongida rasmlar va o'quv materialini bog'lashga hizmat qiladi.

Auditiv media vositalari matn yoki shu kabi materialni tinglash orqali amalga oshiriladigan vazifalarda joriy etiladi. Bunda o'quvchilar eshitish hissi yordamida idrok etadilar va unga mos shaklda munosabat bildiradilar. Eshitish vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: ashula, audiomatn va CD.

Audiovizual media bir vaqtning o'zida ikkita ommaviy axborot vositalarini ya'ni eshitish va ko'rish sezgilarini faollashtiradi. Bular birinchi navbatda turli ta'lim uchun mos bo'lgan filmlar va videoroliklardir. [1,185]

Yangi media turiga internet va turli xil kompyuter ilovalari kiradi. Vizual media bizning kundalik hayotimizning bir qismidir va visual mediaga birinchi o'rinda tasvirlar kiritiladi. Shunday qilib, vizual media haqida gap ketganda, rasmlar haqida so'z yuritimiz. Shu o'rinda savol tug'iladi: "Nega darsda rasmlardan foydalanish lozim?" Bu savolga turli yondashuvlar mavjud, ulardan biri rasmlarning universalligidadir.

Tasvirlarni lisoniyashtirish va matnlarni illyustratsiya qilish bugungi kunda o'quv materiallarining ajralmas qismidir. Tasvir yoki ko'rgazmalilikning boshqa shakllari yordamida chet tilini o'rganish va uning madaniyati bilan tanishishni osonlashtirish chet tilini o'rgatishda keng tarqalgan amaliyotdir. Tasvirlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular tushunish va eslash qolishni osonlashtiradi, ular fikrni to'ldirishi, qisqartirishi yoki jumlaning o'rni bosishi mumkin, shuningdek, tilning ta'sirini o'zgartirishi, motivatsion funktsiyasi orqali biror harakatga undashi ham mumkin.

Asosiy va chet tili sifatida o'rganish uchun nashr etilgan nemis tili uchun darsliklarda rasmlarsiz til va grammatik mashqlari deyarli uchraydi. Rasmlar, fotosuratlar, chizmalar, komikslar, piktogrammalarning tasvirlanishi o'quv materialining muhim qismini tashkil qiladi. [2,14]

Nemis tilshunosi Wilfried Wittstruck kitoblaridagi rasmlarning quyidagi funktsiyalarini farqlaydi:

bezak uchun; qiziqish va motivatsiyani oshirish maqsadida; matnni tushunishni osonlashtirish uchun (masalan, faktik matnlardagi atamalar va faktlarni tasvirlar yordamida tushuntirish); kontseptual va faktik bilimlarni o'rganish va eslab qolishda yordam berish maqsadida (masalan grammatik mashqlarda); tasavvur hosil qilish va turli xil nuqtai nazarlarni shakllantirish uchun (masalan, hikoya matnlarida sharhlovchi tasvirlar sifatida) va nihoyat estetik tarbiyani rivojlantirish maqsadida. [2,16]

Darsliklarga ular sof dekorativ va motivatsion maqsadlarda kiritilishi yoki og'zaki va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida foydalanilishi mumkin.[2,7] Chet tilini o'qitishda rasmlar bilan ishlash samarali metodlardan sanaladi. Rasmlarni tasvirlash, rasmlardagi farqlarni muhokama qilish yoki matnga mos rasmni topish, domino yoki rasmi diktant kabi metodlar chet tilini o'qitishda keng qo'llaniladi. Bundan tashqari rasmlar bilan ishlashning yana bir qancha yo'llari borki, ular til o'rganuvchilarning so'zlash nutqini rivojlantirishga hizmat qiladi.

Masalan, rasm tanlash metodi. Tematik to'plangan rasmlar orasidan o'quvchilar mavzuga eng mos keladiganini tanlaydilar va tanlagan rasmlarini yakka holda yoki guruh bo'lib taqdimot qiladilar.

Rasm va matnni qiyoslash metodi. Biz bilamizki, ekran orqali uzatiladigan ba'zi filmlar kitoblardagi asardan farq qiladi. Xuddi shuningdek ertak yoki hikoyalarning

ham bir qator variantlari mavjud. Ushbu metod yordamida o'quvchilar tasvirning matndan farqli jihatlarini aniqlaydilar va chet tilida bayon etadilar.

Rasmga sarlavha qo'yish metodi. Bu metod kreativ fikrlashni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lib, unga ko'ra o'quvchilar berilgan rasmlar uchun bir qancha sarlavhalar o'ylab topishadi va eng mosini tanlashlari lozim bo'ladi. Vazifa yakunida ular fikrlariga izoh berishlari lozim bo'ladi.

Steckbrief metodi. Steckbrief so'zi qidiruv e'loni degan ma'noni anglatib, mazkur metod ham rasmni qidirib topishga asoslanadi. O'qituvchi tomonidan darslikdagi istalgan tasvir bilvosita tasvirlab beriladi, ya'ni rasmdagi biror element yoki o'ziga xos jihati aytiladi. O'quvchilar esa ushbu rasmni topishlari kerak bo'ladi.

Rasm tasvirlash metodi. O'quvchilar rasmlar to'plamidan birorta rasm tanlab oladilar va ushbu rasmni tanlashlari sababini chet tilida bayon qiladilar.

Bo'shliqlarni to'ldirish metodi. O'qituvchi tomonida biror elementi yetishmayotgan rasm havola qilinadi. O'quvchilar bu element nima bo'lishi mumkinligini muhokama qiladilar va uni to'ldiradilar.

Dars jarayonini tashkil qilishda rasmlardan oqilona foydalanish darsning sifatini oshiradi. Rasmlar, turli xil chizmalar yoki tasvirlar yordamida tashkil qilingan dars o'quvchi-talabalarda o'zgacha qiziqish va ishtiyoq uyg'otadi. Ayniqsa chet tilini o'qitish jarayonida rasmlardan foydalanish samaralidir. O'quvchilar vizual materiallarni yaxshiroq eslab qolishlari dars davomida bunday metodlardan keng foydalanish uchun yana bir sabablardan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gertraude Heyd. Deutsch lehren. Frankfurt am Main: Moritz Diesterweg Verlag 1990.
2. Ulrike Kaunzner A. Bild und Sprache: Impulse für den DaF-Unterricht. Münster: Waxmann 2018.
3. [https://studienseminar.rlp.de/fileadmin/user\\_upload/studienseminar.rlp.de/gy-ko/Wahlmodule\\_16-18/2017.03.06.\\_Bildverstehen/02\\_Methoden-Werkzeuge\\_fuer\\_die\\_Arbeit\\_mit\\_Bildern.pdf](https://studienseminar.rlp.de/fileadmin/user_upload/studienseminar.rlp.de/gy-ko/Wahlmodule_16-18/2017.03.06._Bildverstehen/02_Methoden-Werkzeuge_fuer_die_Arbeit_mit_Bildern.pdf)